ISSN (o): 3030-3362



№ 4(26)
27.04.2025
IF 2024 11.7

RTADQIQ VA TATBIQ
Research and implementation
scientific-methodical journal

SCIENCES
Exact, Natural, Political, Social, Economic, Technical, Medical, Pedagogical

zenodo
Google scholar
OpenAIRE
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CERTIFICATE № 078777
ral-journal.uz
@ferteach_uz

Editor in Chief:
F.M.Mukhtarov
PhD, associate prof

Executive editor
S.I.Zokirov
PhD, associate prof

Languages:
Uzbek, Russian, English and Karakalpak

Registered in the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan on May 3, 2023 under number 078777.

IF-2024: 11.7

@ferteach_uz
+99893-343-13-14
https://rai-journal.uz

SCAN ME

Editorial Board:

B.R.Ismailov *– Dr. Tech. Sc., Prof., M.Avezov South Kaz. Univ., Shymkent, Kazakhstan*
I.Bjorn *- Ph.D., Imeritus, Technical University of Denmark, Copenhagen, Denmark*
A.Rasulov *– Dr. Phys.-Math. Sc., Prof., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
L.K.Mamadaliyeva *– Dr. Tech. Sc. (DSc), Prof., FerPI, Fergana, Uzbekistan*
M.E.Yunusaliyev *– Dr. Tech. Sc. (DSc), Prof., FerPI, Fergana, Uzbekistan*
X.B.Ismailov *– Can. Tech. Sc., Assoc. Prof., M.Avezov South Kaz. Univ., Shymkent, Kazakhstan*
J.T.Moldaliyev *– Can. Bio. Sc., Assoc. Prof.. OshSU, Osh, Kyrgyzstan*
O.S.Nazarmatov *– DSc in Econ., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
G.K.Obidova *- DSc in Ped., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
T.M.Abdullayev *- Ph.D. in Tech. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan.*
N.I.Ibrokhimov *- Ph.D. in Phys.-Math., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan.*
A.R.Nurmatov *- Ph.D. in History, NamSU, Fergana, Uzbekistan.*
T.Yu.Bakirov *- PhD in Ped. Sc., FarSU, Fergana, Uzbekistan*
D.F.Tukhtasinov *- Ph.D. in Ped. Sc., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan.*
S.B.Atajonova *- Ph.D in Ped. Sc., AndMI, Andijan Uzbekistan*
Sh.A.Umarov *- Ph.D. in Phys.-Math. Sc., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan.*
I.A.Rustamov *- Ph.D. in Phil. Sc., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan.*
B.Kh.Tolipov *- Ph.D. in Phil. Sc., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan.*
O.Kh.Otakulov *- Can. Tech. Sc., Assoc. Prof.. TUIT Fergana branch, Uzbekistan*
O.S.Raimjonova *- Ph.D in Tech. Sc., Assoc. Prof., TUIT Fergana branch, Uzbekistan*
R.A.Nurdinova *- Ph.D in Tech. Sc., Assoc. Prof., TUIT Fergana branch, Uzbekistan*
M.I.Ismoilov *- Ph.D in Tech. Sc., Assoc. Prof., TUIT Fergana branch, Uzbekistan*
I.T.Tojiboyev *- Can. Tech. Sc., Assoc. Prof., Fergana State University, Uzbekistan*
Sh.J.Kholmatov *- PhD., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan*
Z.N.Khatamova *- PhD. in Tech. Sc., TUIT Fergana branch, Fergana, Uzbekistan*
Q.Kh. Akhunov *- Can. Tech. Sc., Assoc. Prof., Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan*
M.Kh. Okhunov *- Can. Tech. Sc., Assoc. Prof., Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan*
A.Q. Khomidov *- Can. Tech. Sc., Assoc. Prof., Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan*
Sh.Sh. Akramov *- PhD, TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
A.A. Salimov *- PhD in Econ., Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan*
Z.G'. Ubaydullayev *– Can. Econ., TUIT Qarchi Branch, Qarchi, Uzbekistan*
S.S. Ibragimov *- Ph.D in Tech. Sc., AndMI, Andijan Uzbekistan*
Sh.J. Kholmatov *- Ph.D. in Phil., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
G.D. Kuchkarova *- Ph.D. in Phil., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
I.R.Teshabayeva *- Ph.D. in Tech. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
A.L.Meliquziyev *- Ph.D. in Phil. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
O.U.Kholmatova *- Ph.D. in Phil. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
N.N.Radjabov *- Ph.D. in Phil. Sc., Assoc. Prof., Oriental University, Tashkent, Uzbekistan*
Sh.A.Yuldashov *- Ph.D. in Tech. Sc., Fergana State University, Fergana, Uzbekistan*
A.A.Yuldashev *- Ph.D. in Tech. Sc., Fergana State University, Fergana, Uzbekistan*
M.Israilov *- Can. Tech. Sc., Armed Forces of the Republic of Uzbekistan Academy of Forces*
N.S.Abdullaeva *- PhD in Ped. Sc., NamDU, Namangan, Uzbekistan*
A.G.Turgunboyeva *- PhD in Ped. Sc., NamDPI, Namangan, Uzbekistan*
M.A.Abdullaeva *- Prof., NamDU, Namangan, Uzbekistan*
I.O.Ergashev *- PhD in Econ., Fiscal Institute, Tashkent, Uzbekistan*
N.T.Mamatxanova *- PhD in Ped. Sc., NamDPI, Namangan, Uzbekistan*
U.Yu.Akhundzhanov *- PhD in Tech. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
O.M.Ergashev *- PhD in Tech. Sc., TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*
N.R.Khallieva *- PhD in Econ., Bukhara MTI, Bukhara, Uzbekistan*
F.K.Achilova *– Can. Econ. Sc., TUIT Qarchi Branch, Qarchi, Uzbekistan*
A.K.Samyayev *- PhD in Geog., Sam. Reg. Ped. Skills Center, Samarkand, Uzbekistan*
J.S.Abdullayev *- Can. Phys.-Math. Sc., Assoc. Prof.. TUIT Fergana branch, Uzbekistan*
N.D.Botirova *–PhD in Ped, TUIT Fergana Branch, Fergana, Uzbekistan*

Bosh muharrir:
F.M.Mukhtarov
PhD, dotsent

Ijrochi muharrir:
S.I.Zokirov
PhD, dotsent

Nashr tillari:
O‘zbek, Rus, Inzliz va Qoraqalpoq

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 3-mayda 078777 raqami bilan ro‘yxatga olingan..

IF-2024: 11.7

@ferteach_uz
+99893-343-13-14
https://rai-journal.uz

SCAN ME

Tahrir hay’ati:

B.R.Ismailov *– t.f.d., prof. M.Avezov Jan. Qoz. Univ-ti., Chimkent, Qozog‘iston*
I.Byorno - *Ph.D., Imeritus, Daniya Texnika Universiteti, Kopengagen, Daniya*
A.Rasulov *– f.-m..f.d., prof.TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
L.K.Mamadaliyeva – *t.f.d. (DSc), prof. FarPI, Farg‘ona, O‘zbekiston*
M.E.Yunusaliyev – *t.f.d. (DSc), prof. FarPI, Farg‘ona, O‘zbekiston*
X.B.Ismailov- *t.f.n., dot., M.Avezov Jan. Qoz. Univ-ti., Chimkent, Qozog‘iston*
J.T.Moldaliyev *- bio. f. n., dotsent. OshDU, Osh, Qirg‘iziston*
O.S.Nazarmatov *- iqt.f.d. DSc, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
G.K.Obidova *- ped.f.d. DSc, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
T.M.Abdullayev *– t.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
N.I.Ibrokhimov *– f.-m.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
A.R.Nurmatov *– tarix f.b. Ph.D., NamDU, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
T.Yu.Bakirov *- ped. f.b. PhD, FarDU, Farg'ona, O'zbekiston*
D.F.To‘xtasinov *- ped.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
S.B.Atajonova *- ped.f.b. Ph.D, AndMI, Andijon O‘zbekiston*
Sh.A.Umarov *- f.-m.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
I.A.Rustamov *- fal.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
B.X.Tolipov *- f.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
O.X.Otaqulov *– t.f.n., dotsent. TATU Farg‘ona filiali, O‘zbekiston*
O.S.Raimjonova *– t.f.b. Ph.D, dotsent, TATU Farg‘ona filiali, O‘zbekiston*
R.A.Nurdinova *– t.f.b. Ph.D, dotsent, TATU Farg‘ona filiali, O‘zbekiston*
M.I.Ismoilov – *t.f.b. Ph.D, dotsent, TATU Farg‘ona filiali, O‘zbekiston*
I.T.Tojiboyev *– t.f.n., dotsent, Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston*
Sh.J.Kholmatov *- i.i.f.b. PhD., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
Z.N.Khatamova *- t.f.b. PhD., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
Q.X. Axunov *- t.f.n., dotsent, Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston*
M.X. Oxunov *- t.f.n., dotsent, Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston*
A.Q.Xomidov *- t.f.n., dotsent, Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston*
Sh.Sh.Akramov *– q.x.f.b. PhD, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
A.A.Salimov *- iqt.f.b. PhD, Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston*
Z.G‘.Ubaydullayev *- iqt.f.n., TATU Qarchi filiali, Qarchi, O‘zbekiston*
S.S.Ibragimov *- t.f.b. Ph.D, AndMI, Andijon O‘zbekiston*
Sh.J.Xolmatov*- fal.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
G.D.Kuchkarova*- fal.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
I.R.Teshabayeva *- t.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
A.L.Meliquziyev*- fil.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
O.U.Xolmatova*- fil.f.b. Ph.D., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
N.N.Radjabov*- fil.f.b. Ph.D., dotsent, Oriental University, Toshkent, O‘zbekiston*
Sh.A.Yuldashov *- t.f.b. Ph.D., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston*
A.A.Yuldashev *- t.f.b. Ph.D., Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston*
M.Israilov *- t.f.n., O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi*
N.S.Abdullayeva *- p.f.b. PhD, NamDU, Namangan, O‘zbekiston*
A.G.Turg‘unboyeva *- p.f.b. PhD, NamDPI, Namangan, O‘zbekiston*
M.A.Abdullayeva *- professor, NamDU, Namangan, O‘zbekiston*
I.O.Ergashev *– iqt.f.b. PhD, Fiskal instituri, Toshkent, O‘zbekiston*
N.T.Mamatxanova *- p.f.b. PhD, NamDPI, Namangan, O‘zbekiston*
U.Yu.Axundjanov *- t.f.b. PhD, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
O.M.Ergashev *- t.f.b. PhD, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*
N.R.Xallieva *- iqt.f.b. PhD, Buxoro MTI, Buxoro, O‘zbekiston*
F.K.Achilova *- iqt.f.n., TATU Qarchi filiali, Qarchi, O‘zbekiston*
A.K.Samyayev *- g.f.b. PhD, Sam. vil. ped. mah. mar, Samarqand, O‘zbekiston*
J.S.Abdullayev *- f.-m.f.n., TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston.*
N.D.Botirova *– ped.f.b. PhD, TATU Farg‘ona filiali, Farg‘ona, O‘zbekiston*

Amir Temur va Temuriylar davrida Amir Shohmalikning faoliyati va harbiy yurishlari

Movlonova Odinaxon Kodiraliyevna.

Mustaqil tadqiqotchi.

Copyright: © 2025 by the author.
Licensee: This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https:// creativecommons.org/licenses/by/ 4.0/).

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Shohmalikning Amir Temur va Temuriylar davrida tutgan o‘rni, hamda Amir Temurning harbiy yurishlaridagi faoliyati va Temuriylarning harbiy yurishlaridagi tutgan o‘rnini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Qunduzcha jangi, “Habib us-siyar’’, Shoxrux Mirzo, Sabron qal’asi.

Деятельность и военные походы Амира Шахмалика в период правления Амира Тимура и Тимуридов.

Мовлонова Одинахан Кодиралиевна.

Независимый исследователь

Аннотация: В статье рассматривается роль Амира Шахмалика в период правления Амира Тимура и Тимуридов, а также военные походы Амира Тимура и его роль в военных походах Тимуридов.

Ключевые слова: Битва за Кундуз, «Хабиб ус-сияр», Шахрух Мирза, крепость Саброн.

Activities and military campaigns of Amir Shahmalik during the reign of Amir Timur and the Timurids.

Movlonova Odinakhan Kodiralievna.

Independent researcher

Abstract: The article examines the role of Amir Shahmalik during the reign of Amir Timur and the Timurids, as well as the military campaigns of Amir Timur and his role in the military campaigns of the Timurids.

Keywords: Battle of Kunduz, "Habib us-siyar", Shahrukh Mirza, Sabron fortress.

Bizning tariximiz mustahkam daraxt ildizlari kabi ming yillik boy o‘tmishga ega. Bu o‘tmish sermazmun va har qanday mafkuradan xoli va kelajagimiz uchun xolisona fikr uyg‘ota oladigan muarrixlarning izlanishlari va tadqiqotlari natijasidir.

Mana shu ming yillik tariximizni yaratishda o‘zining munosib o‘rniga ega buyuk shaxslar, allomalar, olim va fuzalolar mavjud. Mana shunday ulug‘ zotlardan biri davlatchiligimiz asosiga tamal toshini qo‘ygan, turk qavmini butun dunyoga tanitgan, mustaxkam chegaralarga ega bo‘lgan davlatga asos solgan zot bu Amir Temur.

Sohibqiron bobomiz o‘zining yetmish yillik umri davomida markazlashgan davlat tuzish bilan birgalikda bunyodkorlik soxasida, xalqparvarlik va yurtsevarlik xislatlarini o‘zida mujassamlashtira olgan va buni yurt kelajagi uchun bir qancha tadbirlarni qo‘llagan.

Amir Temur yoshlik chog‘idan harbiy ishga o‘zgacha muhabbat bilan qaray boshlaydi. Unda harbiy san’atga bo‘lgan qiziqishning o‘rta erta paydo bo‘lishida padari buzrukvori, amir Tarag‘ayning ma’lum darajada ta‘siri borligi shubhasiz.

Amir Temur 1370- yili hokimyatni qo‘lga olgach ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar o‘z ifodasini harbiy ishda va harbiy san’atda ham namoyon etadi. Harb tarixi Amir Temurni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida, haqli ravshda tan oladi.

Sohibqiron yurishga jo‘nashdan oldin vazirlar, sarkardalar, beklar va amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan. Qo ‘shin qo‘mondonlari safiga Amir Temur oliyhimmat, oqil, mard, tadbirkor, sezgir jur’atli, sabotli, harbiy ishga jon-dilini bag‘ishlagan iste’dodli shaxslarni jalb etish masalasiga katta e’tibor bergan. Har bir bek yoki amir o‘z noibi-o‘rinbosariga ega bo‘lgan. Biror bek yoki amir hayotdan ko‘z yumgan taqdirda noibi uni o‘rnini egallagan.

Amir Temur Tarbiyalab voyaga yetkazgan atoqli sarkardalar qatoridan amir G‘iyosiddin Shohmalikning ham o ‘rin olganligi tarixdan ma’lum. Amir G‘iyosiddin Shohmalik (taxm.1350-yil vaf. 1426-yil 21-yanvar) Amir Temur va Shohrux saltanatida xizmat qilgan. Ulug‘bekning vasiysi bo‘lgan. Sohibqiron Shohmalikning kelajakda yirik lashkarboshi bo‘lib yetishishi mumkinligini mushohada qiladi va uni bevosita o‘zi tarbiyalashga mayl ko‘rsatadi. Amir Temurning mehnati zoye ketmaydi. Shohmalik tadbirkor ulug‘ beklardan biri bo‘lib shakillanadi. U hazrat Sohibqironga munosib hizmatlar ko‘rsatib, oliy daraja va mansabga erishadi. Amir Temurning farmoyishiga binoan Amir Shohmalikka ‘’amirul- umaro‘’ lavozimi berilgan, va u oliy bosh qo‘mondon, ya’ni Temurbekning noibi vazifasini ado etgan. Sohibqiron bevosita ishtirok etmagan urush va janglarda amirul-umaro qo‘shinga qo‘mondonlik qilgan. Amir Shohmalik Amir Temur armiyasining turli bo‘linmalari va tuman qismiga ham rahbarlik qilgan. 1391-yilning 16- iyulida Qunduzcha daryosi bo‘yida

To‘xtamishxon askarlari bilan kechgan jangda ko‘rsatgan bemisl jasorati uchun uni tarxonlik unvoni bilan taqdirlaydi. Bu haqida ‘‘Habib us-siyar” asarda shunday ma’lumotlar keltiriladi: *”Amir Temur Guragon muzaffar o‘rduga qaytib kelib, jangda shijoat va qahramonlik ko‘rsatgan barcha kishilarni taqdirladi va tutgan mavqeiga rioya qilgan holda ularni siyladi hamda ko‘ nglini ko‘tardi. Amir Iygu Temur qarindoshlarini yirik sovg‘alar sirasiga kiritib, uning mansabini Qilichqoyning o‘g‘li Shohmalikka berdi hamda shohona katta nishon va parvonachi muhrini ham unga topshirdi”.*

Tarxon yuksak unvon hissoblanadi, (tarxon mo‘g‘ulcha ozod ma‘nosida) bu unvonni olgan inson xon huzuriga hohlagan vaqtda kira olish huquqiga ega bo‘lgan. soliqlardan ozod etilgan va to‘qqiz martagacha jinoyati kechirilgan. Amir Shohmalikning manashunday yuksak unvonga ega bo‘lishi Sohibqironning unga bo‘lgan ishonchi yuqori ekanligidan, hamda Temuriylar saltanatida uning obro‘yi bo‘land bo‘lgabligidan dalolat beradi.

1405-yil 18-fevral kuni Sohibqiron O‘trordaa vafot etganda amir Shohmalik bor kuch va e’tiborini saltanatni saqlab qolishga qaratadi. Shayx Temur Qavchinni shoshilinch tarzda voqea habarini yetkazish uchun Shohrux Mirzo huzuriga jo‘natadi. U ildam yurib sha’bon oyining yigirma sakkizinchi kuni (1405- yil 1-mart) Hirotga yetib keladi va sodr bo‘lgan noxush hodisadan Shohrux Mirzoni ogoh etadi. 1405-yil 23- fevral kuni Qora Yusuf va Ali qavchin boshchiligidagi mahsus guruh Sohibqiron jasadini Samarqandga keltiradi va nevarasi Muhammad Sulton madrasasiga dafn etiladi**.**

Shohrux Ulug‘bekni Shohmalik homiyligida Samarqand taxtiga o‘tqazadi. 1410- yil 10 -aprelda O ‘tror noibi, Amir Temurning sobiq lashkarboshisi Shayx Nuriddin o‘z safdoshi Shohmalik va Ulug‘bekka qarshi isyon ko‘taradi. Shayx Nuriddin o‘z lashkarlari bilan Samarqand atrofiga yetib keladi. Amir Shohmalik Samarqandan lashkarlari bilan tashqariga chiqadi. Muxoliflar Qizilrabot yaqinida bir-birlariga duch keladilar. Jangda amir Shohmalikning lashkariga butunlay shikast yetadi. Amir Shohmalik orqaga qaytib Qoratepa tomonga chiqib ketadi. Kesh va Samarqand oralig‘ida bo‘lgan Aloqasroq tog‘ida panoh topadi.Voqeaga Shohruxmirzo aralashishga majbur bo‘ladi. Ikkinchi marta raqiblar yana to‘qnashadilar.

Bu haqida Abdurazzoq Samarqandiyning ‘’Matlai Sa’dayn va Majmai baxrayn’’ asarida shunday ma’lumotlar keltirilgan. Shayx Nuriddin har qanday yo‘l bilan biror bir fitna qo‘zg‘ar edi, amir Shohmalik Shayx Nuriddinni isyonkorlikni tark etmayotganligini ko‘rib *‘’Agar farmon bo‘lsa Sabronni muhosara qilsak, shoyad u vahshiy ov tuzoqqa tushsa”* deb xaqonga arznoma yozadi. Hazrat xaqon bu ishlarni Shohmalikni o‘z ixtiyoriga topshiradi. *‘’U tarafni tuzatishu buzish ishlari u*

(Shohmalik)ning o‘z uxdasiga havoladir, har nimaniki maslahatdan deb bilsa shuni qilaversin’’ deb buyuradi.

Hijriy 813 yili rabi ul-avval oyining to‘qqizinchi (1410 yil 12 iyul) ular ortasida to‘qnashuv sodir bo‘ladi. Shayx Nuriddin yengiladi va qochib jonini saqlab qoladi. Bir yilgacha ahvol shu tarzda kechadi. 1411 yil 11 yanvarda yana amir Shohmalik Shayx Nuriddinga qarshi jangga chiqadi. Ikkala lashkar Sabronda bir-biriga yuzlanadi. Bu Sarbon qissasi dushmanlikka barham berish hodisasi edi. Shoxrux mirzo voqeaga aralashgach, amir Shayx Nuriddinning qudrati zayiflasha boshladi. U hozirgi Sayram atrofida joylashgan Sabron qal’asiga berkinib,murakkab vaziyatdan qutilish chorasini qidirishga tushadi. Endi qochib qutulib bo‘lmasligini anglab, amir SHohmalik bilan sulh tuzmoqchi bo‘ladi. Ular bir qancha muzokaralardan so‘ng yuzma-yuz uchrashadi. Amir Shohmalik uning taslim bo‘lishi, Tuman og’o va yaqinlarini qaytarib berishini so‘raydi. Amir Shohmalik muzokaralardan biror natija chiqishidan umidi uzilgach,hiyla ishlatadi. Oxirgi uchrashganida hos navkari Hurqadoqni ortada qoldiradi. Unga Shayx Nuriddin bilan quchoqlashib ko‘rishgan paytda ot ustidan tortib tushirish va o‘ldirishni buyuradi.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, 1413 yilda Shohrux Dashti qipchoq o‘zbeklari tomonidan bosib olingan Xorazmni qayta urishib olish uchun ularga SHohmalik boshchiligida Movarounnahr lashkarlarini yuboradi. Shohmalik Xorazmni tez orada qaytarib oladi, va u yerda bir necha kun qolib aholining ehtiyojlarini sarishta qilish, mamlakat qoidalarini tartibga solish, adolat qonunlarini o‘rnatish bilan shug’ullanadi. Xorazimning muhofazasi uchun yaxshi navkarlardan qoldirib o‘zi Hirotga Shohruh oldiga ketadi. Shohrux uni cheksiz sovg’a salomlar bilan taqdirlaydi. Bir necha vaqtdan keyin Xorazm hukumati unga topshirilib, hayotining oxirgi kunlarigacha uning qo‘lida bo‘ladi. Amir Shohmalik Xorazm mulkida osoyishta hayotni shu darajaga yetkazadiki, dunyo sarkashlari ham O‘zbek viloyatlariyu Dashti qipchoq mutakabbirlarini el qilib itoatga keltiradi. Abdurazzoq Samarqandiyning takidlashicha u tez orada ‘’G’iyosiddin odil Xorazmshoh” nomi bilan shuhrat qozonadi.

Manbalarda ma’lum bo‘lishicha Amir Shohmalik saltanat devonxonasida devonbegi oliy mansabida ham faoliyat ko‘rsatgan,mamlakat obodligi yo‘lida ko‘p hayrli ishlar qilgan. Jangu jadal chog’ida shijoat ko‘rsatib dushman guruhini qochirishga muyassar bo‘lgan sarkardalar Sohibqiron tomonidan yuqori mansab va lavozimga tayinlangan.

Biror mamlakat yoki yurtni egallagan amirga o‘sha yerlar ma’lum shart va imtiyozlar asosida boshqarilish uchun suyurg’ol tarzida inoyat qilingan.Temurbek va Temuriylar davrida suyurg’ol keng tarqalgan feodal yer egaligi turlaridan biri

bo‘lib,nasldan naslga o‘tgan.Suyurg’ol egasi davlat hissobiga to‘lanishi zarur bo‘lgan soliqlardan ozod qilingan. Bunday suyurg’ol turi “darbasta suyurg’al”deb yuritilgan.

Sohibqiron: “Qaysi mamlakat fath etilsa va Shohmalik u o‘lkadagi biror qishloqni tanlasa,uning suyurg’ali bo‘ladi” der ekan. Hayotlik chog’ida uning suyurg’allari shu tariqa ortib bordi.Amir Shohmalik o‘ziga tegishli mulklarda el-yurt ravnaqiga xizmat qiluvchi madrasalar, xonoqohlar, masjidlar, rabotlar, hovuzlar, ekinzorlar kabi ko‘plab xalqqa xizmat qiladigan inshootlar bunyod ettiradi**.** Samarqanda qurdirgan madrasasi shulardan biri edi. Unga albatta vaqf mulklari ajratgan. Amir SHohmalik madrasasi taxminan 4-darajali oliy toifaga mansub dargohlari qatoriga kirardi.

Shohrux mirzo Saraxs viloyatidaligida Amir Shohmalikning o‘n birinchi rabi al-avvalda dushanba kechasi (21 yanvar 1426)vafot etganligini eshitadi. Uning dunyodan o‘tganligiga ko‘p qayg’urib mayusi mahzun bo‘ladi,ammo ajal jilovi parvardigorning qo‘lida bo‘lganligi uchun qayg’u foyda bermasligini chuqur anglab yetadi. „Matlai sadayn’’asarida keltirilishicha;*’’Bu yil voqealari jumlasidan biri marhum amir G’iyosuddin SHohmalikning vafotidirki,u malollik vahshat obodidan oxirat rahmat obodiga ko‘chib o‘tdi. U tadbirkor ulug’ amir edi va hazrat Sohibqironning zamonida yaxshi xizmatlar ko‘rsatib oliy daraja va mansabga erishgan edi.Temur uning peshonasida baxtu omad asarlari va saodatu baxtiyorlik nurlarini mushohada qilgach uni tarbiyalashga mayl ko‘rsatgan edi.’’*

Shohmalikning jasadini uning hotini va o‘g’li Ibrohim Sultonlar Mashhadga keltiradilar va Imom Rizoning qabri yoniga Shohmalikning o‘zi qurdirgan maqbaraga dafn qiladilar.Shohrux Shohmalikning suyurg’oli bo‘lgan Xorazmni idora qilishni uning farzandi Ibrohim Sultonga inoyat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki. Amir Shohmalik Amir Temur saroyidagi obro‘yi yuqori edi. Uning Amir Temurning har bir yurishlarida bevosita birga bo‘lganligi,qo‘shin qo‘mondoni bo‘lganligi ham shundan dalolat beradi. Amir Shohmalik Sohibqiron Amir Temurni nihoyatda hurmat qilar,o‘zining valine’mati deb bilar,bundan benihoya faxrlanardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
2. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan o‘giruvchi-Y.Hakimjonov,tarjimani qayta nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – A.O‘rinboyev,izohlar va lug’atlarni tuzuvchi – H.Karomatov. Hofizi Abruning “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl’’i(ilova)ni forsiydan o‘giruvchi hamda uning izohlarini,geografik nomlar izohini tuzuvchi – O.Bo‘riyev.-T.: ”Fan” nashriyoti, 2019.-544 b.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн./ Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев II – жилд. – T.: O‘zbekiston, 2008. – 632 b.
5. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 1996. – 295 b

Scientific-methodical journal “Research and implementation”

Address:
150100, Fergana region, Fergana, Solim street, 23/4, apt. 26

E-mail:
chief_editor@rai-journal.uz

Our website:
https://rai-journal.uz/

The Scientific-methodical journal “Research and implementation” was founded by LLC Fer-Teach and supports by the Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi.
This journal was registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan on May 3, 2023 (No 078777).
ISSN 3030-3362.

"Research and implementation" is a specialized journal in the field of technology and covers all major areas of research and development in various fields of technical sciences: physics, mathematics, information technology. The journal also publishes scientific articles on linguistics, teaching methods and the history of the development of technical sciences.

Languages: Uzbek, Russian, English, Karakalpak

ВНИМАНИЕ!

При использовании материалов журнала необходимо указывать источник
Авторы статей несут ответственность за содержание статей и за сам факт их публикации.
Редакция не всегда разделяет мнения авторов и не несет ответственности за недостоверность публикуемых данных.
Редакция журнала не несет никакой ответственности перед авторами и/или третьими лицами и организациями за возможный ущерб, вызванный публикацией статьи.

ATTENTION!

When using journal materials, you must indicate the source.
The authors of the articles are responsible for the content of the articles and for the very fact of their publication.
The editors do not always share the opinions of the authors and are not responsible for the unreliability of the published data.
The editorial board of the journal does not bear any responsibility to the authors and / or third parties and organizations for possible damage caused by the publication of the article

DIQQAT!

Jurnal materiallaridan foydalanganda manbani ko‘rsatish kerak.
Maqola mualliflari maqolalar mazmuni va ularning nashr etilishi fakti uchun javobgardirlar.
Har doim ham mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtai nazarini ifodalamaydi va nashr etilgan ma’lumotlarning haqiqiyligi uchun javobgar emas.
Jurnal tahririyati mualliflar va/yoki uchinchi shaxslar va tashkilotlarga maqolaning e’lon qilinishi natijasida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar uchun javobgar emas.